O’SPIRINLARDAGI EMPATIYANI SHAKLLANISHIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TA`SIRI.

Ibragimova Shahnoza Gapparovna,
Qo‘qon davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi v/b dotsent
shahnozaqdpi@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada o’spirinlik davrining psixologik xususiyatlari, o’spirinlik davrida shaxslararo munosabatlarni shakllanishi, o’spirinlardagi empatiyani shakllanishida shaxslararo munosabatlarni ta`sirini o’rganilganlik holati va ularga keraklicha tavsiyalar berish borasida fikr yuritiladi. O’spirinlik davrida empatiyaning shakllanishidagi muammolar, bolalarni ijtimoiylashuviga ta’siri sabablari o’rganilib tahlil qilingan va ularni bartaraf etish yo’llari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: shaxs, psixologiya, o’spirinlik davri, empatiya, muhit, oila, shaxslararo munosabat, motiv, tarbiya.

Respublikamizning yangi bosqichga o’tishi o’z taraqqiyot yo’lidan borayotgan O’zbekistonda yangicha fikrlaydigan, bo’layotgan voqea hodisalarga erkin munosabat bildiradigan, ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan muloqotning sir-asrorlarini o’rgangan yoshlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda kelajak avlodni teran fikrli, aqilli, mustaqillik ruhida tarbiyalashga alohida e`tibor berilmoqda. Ushbu muammoni hal etish ta`limning asosiy maqsadlaridan biri bo’lib, mustaqil fikrlovchi raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislarga bugungi kunda ehtiyoj katta.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turli etik va estetik nazariyalarda odamning boshqa bir odamni bilish va tushunishga ko’mak beruvchi hamda uning odamlar bilan bo’lgan munosabatlarini aks ettiruvchi xususiyatlariga tavsifi berilgan. Mazkur nazariyalar psixologiyada empatiya fenomenini o’rganishga turtki bo’lgan. Psixologiya ilmiga “empatiya” terminini birinchi bo’lib E.Titchener kiritgan. Psixologik lug’atda empatiya birovning kechinmalariga kirishish emosional holatni anglash sifatida talqin qilinadi. Empatiya fenomenini talqin etuvchi yo’nalishlar uning qanchalar ko’p qirraliligini va murakkabligini ko’rsatadi. Empatiya birinchidan idrok etilayotgan odamning kechinmalari ichki olamini modellashtirishga yo’naltirilgan psixik jarayon sifatida tushuniladi. Empatiyaga bo’lgan bunday yondoshuvda uning dinamik prosessual xarakteri e`tirof etiladi.

Umuman olganda empatiya bu shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatidir. U o’z ichiga empatiyaning ham ob`ekti ham sub`ektiga namoyon bo’ladigan individning ijtimoiy psixologik qobiliyatlari yig’indisidir. Bunday qobiliyatlarga: boshqa birovning emotsional holatlarini anglash qobiliyati va birovning hatti-

harakatlari, o’ylari hissiyotlariga xayolan o’zini ko’chira olish, boshqa odamning dardlarini engillatish va o’zaro munosabatlarga kirishish usullaridan foydalana olish qobiliyatlari kiradi.

Empatiya shakllarini aniqlashni yana bir mezoni mavjud – empatik kechinmalar yo’nalganligi. Empatiyaning mazkur ko’rsatkichi shaxsning umumiy yo’nalganligi va uning qadriyatlar tizimi bilan bog’liq. Ushbu mezonga ko’ra empatiya hamdardlik va qayg’uga sherik bo’lish shakllariga bo’linadi. Ular o’rtasidagi farq namoyon bo’layotgan emotsional holatlar refleksiyasi va empatiya ob`ekti bilan identifikasiyalanish darajalaridadir.

Zamonaviy psixologiyada empatiya shaxsning o’ziga hamda boshqa birovga yo’nalgan bo’lishi aniqlangan. O’ziga yo’naltirilgan empatiya shakli ichki disstress yoki diskomfort hissi sifatida belgilanadi. U idrok etilayotgan ob`ekt holati empatiya sub`ektining xususiy shaxslar aro extiyojlarini taranglashuvi vaziyatida vujudga keladi. Bunda individ empatiya ob`ektinikiga monand kechinmalarini his qiladi. Faqat ular o’ziga qaratilgan bo’ladi.

O’ziga yo’nalganlik uning mazmunida aks etadi. Individ o’zining boshidan o’tganini yoki kelajakda sodir bo’lishi mumkinligini his qiladi. O’ziga yo’naltirilgan kechinmalar shaxsga doir distressni pasayishiga yordam beradi va individning psixologik barqarorligini tiklaydi. Ular himoyaviy vazifani bajaradi.

Boshqalarga yo’naltirilgan empatiya shaklini hamdardlik yoki empatik g’amxo’rlik sifatida belgilashadi. Hamdardlikda shaxs birovning dardini o’zinikiga bog’lamagan holda his qiladi. U ob`ekt holati empatiya sub`ektida axloqiy motivlarni dolzarblashtirgan vaziyatda vujudga keladi.

Empatiya shakli shaxsning qadriyatlar tizimi munosabatlar va dunyoqarash xususiyatlari bilan belgilanadi. Egosentrik motivatsiya, qadriyatlar tizimiga ega bo’lgan shaxs boshqa birovning dardini ko’rganda ichki distressni boshdan kechiradi. Prosotsial motivatsiyaga ega shaxs boshqa birovlar bilan sodir bo’lgan nohushliklarga guvoh bo’lganda hamdardlik hissini boshidan kechiradi.

O’spirinlik davri ontogenezdagi beqaror davrdir. Qolaversa, o’spirinlik davri boshqa davrlardan o’zining taraqqiyotini nomutanosibligi bilan ajralib turadi. O’spirinlik davridan keyingi davriga o’tish taraqqiyotni faollashtiradi: o’zini o’zi aniqlash jarayoni yakunlanib, o’z imkoniyatlarini namoyon etish amalga oshadi. O’spirinlik darvriga xos bo’lgan psixologik xususiyatlaridan biri kelajakka intilishdir. O’spirinlik davrida shaxs taraqqiyotining muhim omili bo’lib, hayotiy rejalar tuzish, kelajak rejalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Hayotiy reja-shaxsning o’zligini anglash sohasini butunligicha qamrab oluvchi keng tushunchadir. O’spirinlarning hayotiy rejalari hali orzu-xayollar zamirida bo’ladi. Bu davrdagi shaxs o’zini turli rollarda tasavvur etib ko’radi, lekin qat`iy to’xtamga kela olmaydi.

Qachonki shaxs oldiga faqatgina maqsadlar qo’yishi bilan cheklanmasdan balki unga erishish usullarini bilsa va shaxsiy sub`ektiv hamda ob`ektiv resurslarini ishga tushirsagina hayotiy rejalarning aniq mazmuni ochib berila boshlanadi. L.S.Vigotskiy hayotiy rejalarni shaxsning o’z ichki olamini boshqara olishini va “maqsadli” boshqarish tamoyili bilan bog’liq harakatlar tizimini ko’rsatib beruvchi mezon sifatida tushuntirib bergan. Jamiyatdagi o’z mavqeini aniqlash, anglash va

kelajak rejalarini tuzish, o’spirinlik davri uchun xos bo’lgan psixologik yangi qirralaridandir.

Sub`ektning kelajagini rejalashtirish jamiyatdagi mavjud “tipik hayot yo’li” modeli katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning madaniyati va qadriyatlar tizimi ushbu modelda aks etib, eng asosiysi vaqt tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi: ijtimoiy “ortda qolmaslik” uchun sub`ekt qachon harakat qilishi va keyingi qadamni bosish kerakligini bilishi egadir.

G’arb psixologlari tomonidan o’zini o’zi anglash, aniqlash jarayoni identifikasiyaning rivojlanish jarayoni sifatida talqin etiladi. E.Erikson shaxs identifikasiyasini izlashni ulg’ayish davrining markaziy muammosi sifatida ko’rib chiqadi. Identifikasiya shaxsning o’zini o’zi anglash tahlil qilishi bo’lib, u uzluksiz ravishda quyidagi savollarga javob izlashga urinadi: “Men qandayman? Men qanday bo’lishni istar edim?”, “Men haqimda nima deb uylashyapti?” ulg’ayish davrida jismoniy va psixologik transformasiya hamda yangi ijtimoiy kutuvlar ta`sirida identifikasiyaning yangi qirralarini ochilishiga qarshi bo’lmagan oilaviy gender va kasbiy rollar bilan bog’liq bo’lgan xususiyatlarni birlashtirishi, ziddiyatlardan qochishi, o’ziga bergan bahosi bilan o’zgalarning bahosini muvofiqlashtirishi zarur.

L.S.Vigotskiy o’spirinlik davrida o’zini anglash va shaxs taraqqiyotini markaziy o’ringa qo’yadi. Ushbu davrda “Men”ning yangi qirralari ochiladi, shaxsning o’zi uchun betakror va orginal bo’lgan fikrlari, shaxsiy kechinmalarni betakror deb qabul qilish an`anasining ortishi kibrlilik va odamovilikning ortishiga olib kelib, noto’g’ri e`tiqodning shakllanishiga turtki bo’ladi va uning ichki olamini hech kim tushuna olmaydi.

O’zini shaxs sifatida anglashga intilish refleksiya, o’zini chuqur tahlil qilishga olib keladi: nima uchun bunday ish qildim, o’zimni aqlli qilib ko’rsatdimmi, o’zimni tuta bildimmi yoki chegaradan chiqib ketdimmi va boshqalar. O’spirin o’z xarakateridagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilar ekan o’zgalarning xarakteri, xulq-atvorini kuzata boshlaydi va o’z xulq-atvori bilan solishtirib o’xshash va bir –biridan farqlanuvchi jihatlarni izlaydi. Bu o’zgalarni tahlil qilish va o’z xatti-harakatlarini tahlil qilish o’zini o’zi takomillashtirishi vazifasini qo’yilishiga zamin hozirlaydi. Ko’pgina o’spirinlarning kundaliklarida o’zini o’zi tarbiyalashga, o’z imkoniyatlarini namoyon etishga, o’z ustida ishlashga intilishi kuzatiladi. Kelajakka yo’nalganlik jismoniy va intellektual imkoniyatlarni to’la his eta bilishga, hayotiy tonusning ortishiga olib keladi. O’zini emosional his etish o’smirlarga qaraganda muvofiqlashadi. Affektiv reaksiyalar o’tmishda qoladi, lekin ayrim vaziyatlarda o’spirinning maksimal fikrlari suhbatdoshi tomonidan inkor etilsa, kutilmagan reaksiyalar kuzatilishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan ko’rinadiki, o’spirinlik davrida empatiyaning shakllanishi shaxslararo munosabatlar tizimida muhim rol` o’ynaydi. Ayniqsa, shaxsda kechadigan psixologik, fiziologik o’zgarishlar ulardagi shaxslararo munosabatlar tizimining xususiyatlariga bog’liq ravishda amalga oshiriladi. Munosabatlar jarayonida empatik xususiyatlarni rivojlanishi insoniylik xulq-atvorini chuqur shakllanishiga olib keladi. Shu bois, aynan o’spirinlik davriga doir tadqiqotlarda munosabatlardagi empatik xususiyatlarni shakllantirish o’spirinlik

davri shaxs kamolotida muhim hisoblanib, unda jamiyatga kirishish, o’zini shaxs sifatida shakllantirish, shaxsiga xos bo’lgan sifat xususiyatlarni tarkib toptirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O’zbekiston, 2017. 488-b.

2. 1.Z.T.Nishanova,N.G.Kamilova,D.U.Abdullayeva,M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" Toshkent-2018

3. Bodalyov A. A. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. — Moskva: Akademiya, 2020. — 256 b.

4. Petrovskiy A. V. Shaxs va jamoa psixologiyasi. — Moskva: Yurayt, 2020. — 304 b.

5. Elkonin D. B. Yosh davrlari psixologiyasi. — Moskva: Yurayt, 2021. — 288 b.

6. Rubinshteyn S. L. Umumiy psixologiya asoslari. — Moskva: Piter, 2020. — 512

7. Andreeva G. M. Ijtimoiy psixologiya. — Moskva: Aspekt Press, 2021. — 368 b.

8. Kon I. S. O‘smirlik psixologiyasi va shaxslararo munosabatlar. — Moskva: Akademicheskiy proyekt, 2020. — 320 b.